

OLIIY TA'LIM TALABALARINING ARAB TILIDAGI NUTQ XATOLARINI TAHLIL QILISH VA ULARNI BARTARAF ETISH YO'LLARI

Baxtiyorova Munisa

Alfraganus universiteti Filologiyasi fakulteti

1-kurs 25-02 guruh talabasi

Raxmonov Azimjon Komilovich

Alfraganus universiteti Filologiyasi fakulteti

Tillarni o'qitish markazi rahbari

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek o'quvchilarida arabcha nutq jarayonida uchraydigan eng keng tarqalgan xatolar, ularning kelib chiqish sabablari hamda bartaraf etish yo'llari yoritilgan. Arab tili grammatik tuzilishining murakkabligi, talaffuz tizimining o'ziga xosligi va nutq muhiti yetishmasligi o'quvchilarda turli xatolarga sabab bo'lishi ta'kidlanadi. Maqolada so'zlarni yodlab ham gap tuza olmaslik, ona tilidan to'g'ridan-to'g'ri tarjima qilish, grammatikaga ortiqcha e'tibor, talaffuzdagi noaniqliklar, mashq yetishmasligi va xatodan qo'rqish kabi omillar tahlil qilinadi. Shuningdek, tilni samarali o'rganish uchun amaliy mashqlar, to'g'ri talaffuzni shakllantirish, nutq muhitini yaratishning ahamiyati ko'rsatib o'tiladi. Tadqiqot arab tilini o'rganayotgan o'quvchilar uchun samarali tavsiyalar beradi.

Abstract : This article analyzes the most common speech errors made by Uzbek learners of the Arabic language, their underlying causes, and effective solutions. It highlights how the complexity of Arabic grammar, the specific nature of its phonetic system, and the lack of an immersive language environment contribute to frequent mistakes among learners. The study examines issues such as memorizing vocabulary without forming sentences, direct translation from the mother tongue, excessive focus on grammar, pronunciation difficulties, insufficient practice, and fear of making mistakes. Additionally, the article emphasizes the

importance of practical speaking activities, developing accurate pronunciation, and creating a supportive language environment. The research provides practical recommendations for learners striving to improve their Arabic speaking skills.

Kirish: O'zbek tilida tarixiy taraqqiyot jarayonida ko'plab tillar, ayniqsa arab tili bilan yaqin aloqada bo'lgan. Arab tilining grammatik tuzilishi, adabiyoti va ilmiy merosi o'zbek tili va madaniyatiga katta ta'sir ko'rsatgan. Islom dini Markaziy Osiyoga kirib kelgach, arab tili nafaqat diniy til, balki ilm-fan tili sifatida ham keng tarqaladi. Natijada o'zbek tili tarkibiga arabcha so'zlar, iboralar va uslublar kirib bordi. Bugungi kunda ham ko'plab tarixiy manbalar, ilmiy risolalar va adabiy asarlar arab tilida bitilgan bo'lib, ularni o'rganish arab tilini puxta bilishni talab qiladi. Shu sababli arab tilini o'rganish nafaqat diniy va ilmiy merosni anglash, balki zamonaviy til o'rganish jarayonida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ammo arab tilining grammatik murakkabligi va talaffuz xususiyatlari sabab ko'plab o'quvchilar maqolada aynan arab tilida gapirish jarayonida uchraydigan keng tarqalgan xatolar, ularning sabablari va ularni bartaraf etish yo'llari haqida batafsil so'z yuritiladi.

Arab tilini o'rganayotgan o'quvchilar orasida eng ko'p uchraydigan muammolardan biri – bu gapirish vaqtida qilinadigan xatolardir. Ushbu xatolar ko'pincha o'rganuvchining o'zida emas, balki noto'g'ri yondashuvda, yetarli mashq qilmaslikda yoki nutq muhiti yo'qligida bo'ladi. Arab tilida gapirish jarayonida keng tarqalgan xatolar va ularni asosiy sabablari:

1. So'zlarni yodlab, gap tuza olmaslik;

Ko'pincha arab tili o'rganuvchilari minglab so'zlarni yod oladi, lekin ularni bir-biriga bog'lab gap tuzishda qiynaladi. Bu holat arab tilida gapirishning sekinlashishiga yoki umuman to'xtab qolishiga olib keladi. Aslida so'z yodlashdan ko'ra, ularni jumla ichida ishlatish ko'proq foyda beradi.

2. Ona tilidan to'g'ridan-to'g'ri tarjima qilish;

O'zbek tilidagi fikrni so'zma-so'z arabchaga tarjima qilish ko'plab xatolarga sabab bo'ladi. Arab tili o'ziga xos grammatik tuzilishga ega, shuning uchun fikrni arab tilining o'z qonun-qoidalariga moslab ifodalash lozim.

3. Grammatikaga ortiqcha e'tibor qaratish;

Ba'zan o'quvchi har bir jumlasini mukammal grammatik qoidalarga mos qilmoqchi bo'ladi. Bu gapirish jarayonini sekinlashtiradi va odamning ishonchini pasaytiradi. Holbuki, gapirishda eng muhim narsa – fikrni yetkazish, so'ngra asta-sekin grammatikani to'g'rilash.

4. Talaffuzdagi noaniqliklar;

Arab tilidagi tovushlar o'zbek tilidagi ayrim tovushlardan farq qilishi, ayniqsa ق، غ، ع، خ kabi harflar o'zbek tilida yo'q. Shu sababli talaffuzni videolar, audio darslar va arab o'qituvchilar yordamida shakllantirish kerak. Noto'g'ri talaffuz ba'zan ma'noning o'zgarishiga olib keladi va ma'noni tamomila buzadi. Arab tilidagi ko'p harflar o'zbek tilidagi harflarga o'xshasa ham, lekin talaffuzida juda katta farq bo'ladi. To'g'ri talaffuz qilish muhim va talaffuzni to'g'ri qilish uchun harflardan boshlash kerak. Sof arab tilida talaffuz qilishi shart bo'ladi, bo'lmasa yuqorida aytib o'tganimizdek, ma'noni o'zgarishiga olib keladi.

5. Mashq yetishmasligi;

Gapirish – bu amaliyot talab qiladigan ko'nikma. Faqat darslik o'qish va yozish yoki qoidalaridan iborat emas, bo'lmasa nutq rivojlanmaydi. Kundalik hayotda qisqa jumlar tuzish, ko'proq gapirish, baland ovozda o'qish va shu bilan birga Qur'onni ko'proq o'qish. Arab tilini biladiganlar bilan ko'proq suhbatlashish – bularning barchasi gapirishni yaxshilovchi eng samarali usullar.

6. Xatodan qo'rqish;

Xato qilib qo'yaman degan qo'rquv sabab gapirmay qo'yadi. Aslida xato – o'rganishning ajralmas qismi. Har bir xato to'g'ri shaklga olib boradi va nutqni yaxshilaydi. Xato qilish orqali to'g'ri talaffuz qilishni o'rganamiz va xatolarni to'g'irlaymiz.

Xulosa: Arab tilida gapirishdagi xatolar tabiiy jarayon hisoblanadi. Muhimi – xatolardan saboq olish, muntazam mashq qilish va til muhitini shakllantirish. Agar o'quvchi har kuni kamida bir necha soat arabcha gapirishni odat qilsa, oson jumlar bilan bo'lsa ham qisqa vaqt ichida nutqdagi o'zgarishni sezadi.

Arab tilini o'rganishda o'zbek o'quvchilari tomonidan yo'l qo'yiladigan nutq xatolarining tahlili shuni ko'rsatadiki, xato asosan uchta omilga borib taqaladi: fonetika, grammatika, va psixologik to'siqlar. Nutqdagi xatolar tabiiy jarayon bo'lsa-da, ular vaqtida to'g'rilanmasa o'quvchi nutq rivojlanishida sekinlashuv yuzaga keladi. Shu bois xatolarni tizimli o'rganish va chuqur tahlil qilish arab tili ta'limida muhim o'rin tutadi.

Birinchidan, fonetik xatolar — غ، خ، ع، ق kabi tovushlarni talaffuz qilishdagi qiyinchiliklar o'zbek tilida mos tovushlarning yo'qligi bilan bog'liq. Shuning uchun talaffuzni yaxshilashda fonetik trening, audio darslar, arab tilida so'zlashuvchilar bilan muloqot katta ahamiyatga ega.

Ikkinchidan, grammatik xatolar ko'pincha ona tilidan to'g'ridan-to'g'ri tarjima qilish oqibatida kelib chiqadi. Bunday xatolarni bartaraf etish uchun arab tiliga xos nahv va sarf qoidalarini amaliy mashqlar orqali mustahkamlash zarur. Yodlangan so'zlarni alohida emas, balki matn ichida, dialoglarda, real vaziyatlarda qo'llash o'quvchining grammatik moslashuvini tezlashtiradi.

Uchinchidan, psixologik xatolar — xato qilishdan qo'rqish, ishonchsizlik, gapirishdan tortinish — nutqning rivojlanishiga eng katta to'sqinlik qiladi. O'quvchini ko'proq fikrlashga, gapirishga, xato qilishdan uyalmay turib o'rganishga rag'batlantirish muhim. Shuningdek, muntazam ravishda:

- qisqa dialoglar tuzish,
- baland ovozda o'qish,
- arab tilida o'ylashni mashq qilish,
- til muhitini yaratish (radio, podkastlar, videolar)

o'quvchi nutqini sezilarli darajada rivojlantiradi.

Umuman olganda, arab tilidagi nutq xatolarini chuqur tahlil qilish o'quvchini to'g'ri yo'naltirish, metodik yondashuvni to'g'rilash va samarali o'qitish strategiyalarini ishlab chiqishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. To'g'ri yondashuv, muntazam mashq va kuchli motivatsiya orqali o'zbek o'quvchilari qisqa muddatda ravon va ishonchli arabcha nutqqa ega bo'lishlari mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov, N. *Arab tilini o'qitish metodikasi*. – Toshkent: Fan nashriyoti, 2020. (Elektron manba: Ziyonet kutubxonasi).
2. Arab tili grammatikasi. 1–2 jild. – Toshkent: Hilol-nashr. Elektron manba: *Hilol-nashr rasmiy sayti* — <https://hilolnashr.uz>
3. Prakashan, A. Central Asia: Literary Cultural Scenario and Hindi.
4. Arab adabiy tili: qoidalar va mashqlar. – arabic.uz elektron ta'lim platformasi. Elektron resurs: <https://arabic.uz/kitoblar/arab-adabiy-tili.pdf>
5. Oson nahv (Arab tili grammatikasi bo'yicha qo'llanma). – arabic.uz elektron kutubxonasi.
6. Raxmonov, A. (2025). MUTARRIZIYNING “RISALATUN FIN-NAHV” ASARIDA TIL O'QITISH USULLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 5(20), 126-130.
7. Рахмонов, А. К. (2025). АБУЛФАТХ БУРХОНИДДИН НОСИР МУТАРРИЗИЙ–ЎРТА АСР ШАРҚ ИЛМИЙ МЕРОСИНИНГ ЁРҚИН НАМОЁНДАСИ. *Oriental Journal of Philology*, 5(3), 549-560.
8. MUTARRIZIYNING “RISOLATUN FIN NAHV” ASARI MO'JAZ GRAMMATIK MANBA. (2025). *Barqaror Taraqqiyot Va Rivojlanish Tamoyillari*, 3(4), 85-88. <https://uzresearchers.com/index.php/BTRT/article/view/2528>
9. Jo'rayeva, M. A. “SHARHI MULLO” A RARE SOURCE.
10. TOSHMATOVA, S. (2024). EXPLORING INDIVIDUAL-PSYCHOLOGICAL APPROACHES TO ENHANCE MOTIVATION AMONG EFL STUDENTS. *News of the NUUz*, 1(1.10. 1), 208-209.
11. Abdusalomovna, S. M. (2025). ERKIN A'ZAM NASRIDA IJODKOR OBRAZI TALQINI. *PEDAGOGIK ISLOHOTLAR VA ULARNING YECHIMLARI*, 17(02), 747-749.
12. АЛИЕВА, Д. ПРОБЛЕМЫ ФОНЕТИКИ В УЗБЕКСКОМ И РУССКОМ ЯЗЫКЕ. *XALQ TA'LIMI*, 91.